


NAMANGAN VILOYATINIG TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)


2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1176,3 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga o`tdi. Shu jumladan, eksport hajmi 237,6 mln.AQSh dollarga (20,8 %ga ko`paydi) va import hajmi 938,7 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 2,5 martaga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus -701,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
(mln.AQSh dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik
eksport-import ko`rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(ming. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Yaponiya	319480,6	0,0	319480,6	27,2	922,3 m
Xitoy	203092,8	35307,5	167785,3	17,3	134,1
Rossiya	178918,9	104187,4	74731,5	15,2	155,1
Turkiya	162946,7	5553,3	157393,4	13,9	3,5 m
Qozog`iston	82629,1	56911,6	25717,5	7,0	97,7
Germaniya	43549,2	1901,6	41647,6	3,7	121,2
Latviya	27086,4	110,3	26976,1	2,3	2,4 m
Koreya	17740,3	451,5	17288,8	1,5	75,7
Ukraina	15717,8	5091,9	10625,9	1,3	3,9 m
Italya	14281,2	413,2	13868,0	1,2	4,8 m
Hindiston	13989,8	1218,7	12771,1	1,2	57,4
Qirg'iziston	12067,7	8066,7	4001,0	1,0	107,4
Pokiston	9244,3	2889,9	6354,4	0,8	3,8 m
BAA	8629,3	149,5	8479,8	0,7	5,7 m
Polsha	7060,5	1244,5	5816,0	0,6	2,2 m
Litva	6719,7	410,3	6309,4	0,6	115,8
Turkmaniston	5857,5	2067,3	3790,2	0,5	197,2
Niderlandiya	5645,5	0,0	5645,5	0,5	5,3 m
Belarus	4602,6	1726,7	2875,9	0,4	119,7
Afg'aniston	3621,5	3530,9	90,6	0,3	94,9
Eron	3564,1	642,3	2921,8	0,3	141,8
Tayvan	2792,1	226,9	2565,2	0,2	7,1
Ispanya	2790,9	0,0	2790,9	0,2	125,4
Vengirya	2063,7	0,0	2063,7	0,2	153,4
Vetnam	1788,9	1602,2	186,7	0,2	2,1 m

EKSPORT

2018 yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 237,6 mln.AQSh dollarga (20,8 % ga ko'paygan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlarning ulushi 95,5 % ga ega bo'lib, bular asosan boshqa turdagi mahsulotlar (59,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (33,0 %), shuningdek, mashina va asbob-uskunalar (2,2 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Tovar va xizmatlar eksporti tuzilmasi, (foizda)



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	237619,8	120,8	100,0	179411,2	125,0	100,0	58208,6	109,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	78439,0	106,9	33,0	66399,3	117,2	37,0	12039,7	72,2	20,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1051,1	4,9 M	0,4	684,9	330,1	0,4	366,3	54,7 M	0,6
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	15,0	34,5	0,0	0,0	0,0	0,0	15,0	34,5	0,0
Qora va rangli metallar	821,0	177,4	0,3	817,4	184,4	0,5	3,6	18,4	0,0
Mashina va asbob- uskunalar	5231,4	13,1 M	2,2	4315,1	10,8 M	2,4	916,3	9163,0 M	1,6
Xizmatlar	10616,2	196,8	4,5	9681,4	188,4	5,4	934,8	3,7 M	1,6
Boshqalar	141446,1	121,1	59,5	97513,2	120,9	54,4	43932,9	121,5	75,5

Eksport tarkibi, (foizda)




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar eksporti hajmi 10616,2 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,5 %ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 96,8 % aga o`sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami eksport hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		o`tgan yilga nisbatan, %
	2017 y.	2018 y.	
Viloyat jami	196659,1	237619,8	120,8
Namangan sh	54491,8	80073,1	146,9
Mingbuloq	21444,2	1063,8	5,0
Kosonsoy	6132,9	11879,2	193,7
Namangan	18581,3	26051,9	140,2
Norin	0,5	2887,4	5728,0 m
Pop	5001,6	6445,0	128,9
To`raqo`rg`on	30091,9	26724,1	88,8
Uychi	16300,1	15244,4	93,5
Uchqo`rg`on	11073,4	19100,1	172,5
Chortoq	4015,6	9309,0	2,3 m
Chust	8625,9	9645,2	111,8
Yangiqo`rgon	20371,1	2281,2	11,2

**Viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**




Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 82,7 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Qozog'istonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan engil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin

IMPORT

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 938,7 mln. AQSh dollariga (o`lish sur`ati 2,1 martaga) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (68,9%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,3 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (6,8 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tuzilmasi, (foizda)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	938716,7	2,5 M	100,0	121886,8	152,7	100,0	816829,9	2,7 M	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	63528,5	130,4	6,8	38017,9	120,7	31,2	25510,6	148,0	3,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	105877,4	143,1	11,3	16466,5	169,2	13,5	89410,9	139,2	10,9
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	3599,9	169,4	0,4	2592,9	154,5	2,1	1007	2,3 M	0,1
Qora va rangli metallar	42021,6	2,1 M	4,5	8960,6	122,9	7,4	33061	2,6 M	4,0
Mashina va asbob-uskunalar	646936,8	3,6 M	68,9	13970,3	2,8 M	11,5	632966,5	3,6 M	77,5
Xizmatlar	1104,6	168,9	0,1	44,7	5,4 M	0,0	1059,9	164,1	0,1
Boshqalar	75647,9	150,2	8,1	41833,9	169,4	34,3	33814	131,6	4,1

**Tovarlar va xizmatlar importining oylar
kesimida o`shish sur`atlari**
(o`tgan oyga nisbatan, foizda)



Import tarkibi, (foizda)




Xizmatlar importi hajmi 1104,6 ming. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,1 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,9 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami import hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	<i>yanvar-dekabr</i>		<i>o`tgan yilga nisbatan, %</i>
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	
Viloyat jami	376993,5	938716,7	2,5 m
Namangan sh	90890,4	187810,4	2,1 m
Mingbuloq	2048,4	1208,7	100,0
Kosonsoy	6408,8	22683,9	3,5 m
Namangan	41826,7	57049,9	136,4
Norin	451,2	9296,2	20,1 m
Pop	10807,4	12292,9	113,7
To`raqo`rg`on	124579,4	80758,8	64,8
Uychi	12148,0	29018,4	2,4 m
Uchqo`rg`on	23298,1	38352,9	164,6
Chortoq	4352,1	6656,8	153,0
Chust	3816,0	12122,7	3,2 m
Yangiqo`rgon	9446,9	8523,2	90,2

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 65 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo`lgan Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Koreya Respublikasi, Qozog`iston va Turkiya kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 804 044,7 ming. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 85,6 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o`tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko`rish mumkin.